

## O'QITUVCHILARDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM MASALALARI

Sanayev Farrux Axmatovich

Buxoro Osiyo Xalqaro universiteti

Pedagogika kafedrasи 1-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14901630>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bevostida nutq madaniyatining shakllanishida o'qituvchining o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Shuningdek ajdodlarimizning inson hayotida til va nutqning ahamiyati qanchalik ekanligi haqida fikr yuritiladi. O'qituvchining nutq madaniyatini rivojlanirishga e'tibor qaratish uchun nimalarga ahamiyat berilishi kerakligi haqida fikr yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** nutq, nutq madaniyati, til, millat, tafakkur, fonetik tahlil, kamolot.

## НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ РЕЧЕВОЙ КУЛЬТУРЫ

### ПЕДАГОГОВ.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается роль и значение учителя в формировании культуры речи. Думается также о значении языка и речи в жизни человека наших предков. Выделена мысль о том, чему следует придавать значение, чтобы уделять внимание развитию речевой культуры учителя.

**Ключевые слова:** речь, речевая культура, язык, нация, мышление, фонетический анализ, зрелость.

## SOME ISSUES OF FORMING A SPEECH CULTURE IN TEACHERS.

**Abstract.** This article discusses the role and importance of the teacher in the formation of speech culture. We also think about the importance of language and speech in human life of our ancestors. The idea of what should be given importance in order to pay attention to the development of the teacher's speech culture is highlighted.

**Key words:** speech, speech culture, language, nation, thinking, phonetic analysis, maturity.

**Kirish:** Insonning hayotda dunyoqarashi boy, ma'naviy kamolotga erishuviga, jamiyatning madaniy-ma'rifiy jihatdan rivojlanishda va ravnaq topishida bugungi kunda ona tilimizning o'rni va ahamiyati juda muhim hisoblanadi. Millatning qanday ekanligi, unda kamol topayotgan har bir shaxsning ma'rifat va madaniyatini ko'rsatuvchi yagona narsa bu tildir. Til milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko'zgusidir. Hadisi sharifda alohida ta'kidlab o'tigandek, "Kishining zeb-u ziynati go'zalligi uning tilidadir" deydilar. O'tmishdagi ajdodlarimiz, ota-bbolarimiz ham insonda nutqning chiroyli bo'lishiga alohida e'tibor qaratganlar.

Jumladan Shoh va shoir bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur nutqining sodda, chiroysi va ravon bo‘lishi insonda muhim ahamiyat kasb etishi haqida alohida to‘xtalib o‘tadi.

Buyuk mutaffakkir bobomiz A.Navoiy ijodida ham til va nutq madaniyatiga alohida to‘xtalib o‘tadi. Masalan, A.Navoiyning muhtasham “Hamsa” sining barcha dostonlari (alohida-alohida boblar) da, “Mahbub ul-qulub”, “Muhokamat ul-lug“atayn”, “Nazm ul-javohir” va boshqa ko‘plab asarlarida so‘zning buyuk qudrati va nutq mahoratining xosiyatiga oid betakror fikrlarni bayon qilganganligini uchratishimiz mumkin. [Maxmudov, 2007: 8]. Ayniqsa, uning nutq va til madaniyatiga bag‘ishangan “Muhokamat ul – lug“atayn” asarini o‘qib o‘rganib chiqsak bu tushunchalarining qanchalik tog‘ri ekaanligiga yana bir bor amin bo‘lamiz.

Bu asar o‘zbek tilining bitmas tiganmas fikr bayon qilish imkoniyatlariga ega ekanligini, uning har qanday fikrni ham nazmda to‘la va chiroyi ifoda etishga qodirligini ilmiy va amaliy dalillar asosida isbot qilib beradi. Ushbu asarda A.Navoiy ko‘ngilni dengizga, so‘zni durga, so‘zlovchini esa g‘avvosga qiyoslaganini ko‘rishimiz mumkin. Demak bu fikrlardan bilinadiki til – umumiylilikka, nutq esa xususiylikka egadir. Bundan tashqari A.Navoiy o‘zining ”Mahbub ul-qulub” asarida shunday deydi: ”Til muncha sharaf bila nutqning olatidur va ham nutqdirki, gar napisand zohir bo‘lsa, tilning ofatidur...”[Navoiy, 1998: 94] ya’ni, tilning shunchalik sharafi bo‘lgani bilan u nutqning quroldir, agar u o‘rinsiz ishlatilsa, tilning ofatidir deya ta’rif bergenliklarini ham ko‘rishimiz mumkin. Shunday ekan bola nutqini rivojlantirish, eng avvalo, til qobiliyatini shakllantirishni talab qiluvchi muloqot shakllarini rivojlantiruvchi demakdir (A.A.Leont’ev)[Babayeva, 2018: 432]

Dunyo miqiyosida “Til va nutq hodisalarini o‘zaro farqlab yondashish dastlab ilk o‘rganish bosqichlari sifatida VIII-IX asrlarda shakllangan arab tilshunosligining til o‘rganish usullarida, keyinchlik esa V.Glumboldning tildagi “energio” (harakat, jarayon, kuch) va “ergon” (mahsulot), A.Shteyntalning tildagi “barqaror mohiyat” va “harakatdagi kuchlar”, Boduen de Kurtenening “tildagi barqarorlik va o‘zgaruvchanlik” haqidagi ta’limotlarida uchratamiz. Lekin til bilan nutq hodisalarini va ularga hos birliklarni tom ma’noda ilmiy – nazariy hamda amaliy farqlash; til va nutq birliklarining mohiyatini ochish yo‘llari, “til” va “nutq” tushunchalariga batamom yangi mazmun berilishi F. de Sosyur va uning izdoshlari yaratgan ta’limot bilan bog‘liqdir” deb o‘rganamiz[Ne’matov, Bozorov, 1993: 7].

Yana bir buyuk ajdodimiz, bugungi kunda Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” (Saodatga eltuvchi bilim) asarida til va inson nutqida quyidagicha ta’rif beradi: “ o‘quv va bilimning tilmochi, tarjimoni tildir. Kishiga ro‘shnolik, yaxshilik va ezguliklar til tufayli keladi, buni yaxshi bilib olish kerak.

Qut-izzatni ham, obro‘-e’tiborni ham kishi til orqali topadi. Agar tilga e’tibor bermasa, uni noo‘rin qo‘llasa, odam boshining yorilishi hech gap emas” deb alohida ta’kidlab o‘tadi. [To‘xliyev, 2017: 16].

**Asosiy qism:** “Nutq” so‘zining lug‘aviy ma’nosiga e’tibor qaratar ekanmiz, arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, fikrni so‘z orqali ifodalash degan ma’noni anglatadi.

Nutq – kishi faoliyatining bir turi bo‘lib, o‘zaro aloqa va xabar almashinish, hamda o‘z fikrini his – hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta’sir etish kabi vazifalarni bajaradi. shakllanishi bolaning umumiyligi rivojlanishining ehtimol eng muhim shartidir. Nutq – bosh miya tomonidan ta’milnadanigan muhim oliy ruhiy vazifadir va uning rivojlanishida kuzatiluvchi har qanday og‘ishlarga vaqtida e’tibor berilishi lozim”

Haqiqatdan ham e’tibor qilib qaraydigan nutq har qanday insonda har xil shakllanib bortadi.

Nutqning inson hayotida qanday tarda shakllanishida esa bevosita o‘qituvvchining o‘rni va ahamiyati o‘ziga xos hisoblanadi. Ayniqsa boshlang‘ich sinfda o‘quvchining nutqining asosiy qismi shakllanadi va bu bevosita shu davrda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘rni va ahamiyati aohida hisoblanadi.

O‘quvchining yozuv, o‘qish, gapirish va tinglash kabi ko‘nikmalarning shakllatirish jaroyonida yagona maqsad uning nutqiy ko‘nikmasini rivojlantirishdan iboratdir. Bunda o‘qituvchining o‘rni alohida ekanligi ta’kidlanadi. O‘qituvchi nutqi adabiy talaffuz me’yorlariga amal qilishda o‘quvchiga namuna bo‘la olishi lozim. Adabiy talaffuz me’yorlarining buzilishi eng avvalo shevaning natijasida yuzaga keladi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘zi va o‘quvchilarini nutqini shevaga oid artikulyatsion baza va shevaning fonetik qonuniyatlaridan batamon qutilish oson kechmaydi.

O‘qituvchining nutqiy qobiliyati rivojlanishi uchun bir necha omillar ta’sir qiladi. Bu qobiliyat, asosan, o‘qituvchi o‘z ishiga sadoqatli, ma‘naviy yetuk va kommunikativ bo‘lishiga bog‘liq. Nutqiy qobiliyatning rivojlanish jarayoni quyidagi bosqichlardan o‘tishi mumkin:

**1. O‘qitish tajribasi:** O‘qituvchining dars berishdagi tajribasi ortgani sari, uning nutqi aniqroq va maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Boshqalar bilan muloqot qilish, savollarni aniq va tushunarli tarzda berish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

**2. O‘qituvchining bilim darajasi:** O‘qituvchining o‘qish va ilmiy izlanishlarga bo‘lgan qiziqlishi, uning nutqida ko‘rinadigan o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. To‘g‘ri terminologiya va ilmiy uslubni qo‘llash uning nutqiy qobiliyatini mustahkamlaydi.

**3. O‘quvchilar bilan muloqot:** O‘qituvchi o‘quvchilar bilan doimiy muloqotda bo‘lishi, ularning fikrlarini tinglash, savollariga javob berish orqali o‘z nutqini yanada takomillashtiradi.

**4. Nutqni nazorat qilish:** O‘qituvchining o‘z nutqini tahlil qilib, xatolarni to‘g‘irlay olish qobiliyati nutqiy mahoratini oshiradi.

**5. Muvaffaqiyatli pedagogik uslublar:** O‘qituvchi o‘z pedagogik uslublarini muntazam ravishda rivojlantirsa, bu uning nutqining ifodaliliginи oshiradi.

Xulosa: Xulosa qilib shuni alofida ta’kidlashiiz mumkinki, bugungi kunda o‘qituvchining nutqiy qobiliyatini rivojlantirish uchun nutqiy qobiliyatning rivojlanishi tajriba, ilmiy bilim, muloqot va pedagogik uslublarning kombinatsiyasi orqali amalga oshadi.

## REFERENCES

1. Ta’lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari Toshkent. “Sharq” 1999 256 b
2. Ona tili- davlat tili. Toshkent “Adolat” 2004 80 b
3. A.Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq “O‘qituvchi” 1992
4. Yo‘ldashev J. Hayot va tafakkur sayyorasi- T. Fan 1991
5. Kommenskiy Ya. A Buyuk didaktika- T O“qituvchi”, 1975, 238 b
6. Dildora O. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lingistik kompetentsiyasini rivojlantirish //prospects of development of science and education. – 2023. – т. 1. – №. 12. – с. 46-48.